

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF CREATIVE COMPETENCE DEVELOPMENT IN FUTURE EDUCATORS

Dilafuz Asarova Ibroximovna

Teacher of Fergana State University

Abstract:In this article, it is concluded that in the development of creative competence of future educators, they can act freely, express their independent opinions, and the effectiveness of the educator's activity depends on his creative abilities and creativity skills. In the course of educational activities conducted on the basis of an innovative approach, by solving problems related to critical thinking of future teachers, thoughts were given about situations, various tasks, knowledge in solving tasks and independent thinking activities..


Keywords:Creative tests, creative thinking, creative thinking, creative competence, critical thinking, innovation, aspiration.

Pedagogik testlar- shaxsning ijobiy layoqatini o'rganish va baholash testlari majmuasi, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shaxsning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan testlar. Kreativlik testlari dastlab 20-asrning 50-yillarida qo'llanila boshlangan. Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda bilish qobiliyatining mavjudligi, ularning ijodkorlikka moyilligini aniqlashga yo'naltirilgan. Kreativ testlar D.Gilford, Ye.Torrans va D.B.Bogoyavlenskayalar tomonidan ishlab chiqilgan.

INTRODUCTION. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ fikrlash malakasini rivojlantirishdan avval ularda ushbu tushunchani shakllantirish lozim. Kreativlik tushunchasini shakllantirish uchun esa auditoriyada qulay muhit yaratilishi bo'lajak tarbiyachilarning ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga asos bo'ladi. Ijodiy muhitning to'g'ri tashkillanganligi bo'lajak tarbiyachilarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlariga zamin yaratadi.

X.Xaygns o'z qarashlarida " To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga asoslanadi. Pedagoglar o'zlarining ta'lim berish usulida (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldorlikni, keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash) yuqori natijalarga erishmoqchi bo'lsalar, bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy sifatlarini belgilovchi va tajribalarini aniqlovchi testlardan foydalanish" ni tavsiya etadi.

MATERIALS AND METHODS.Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetetligini rivojlantirish jarayonida tanqidiy fikrlash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va nostandart tarzda muammoni hal etish yo'llari orqali amalga oshiriladi. Alan Uolkerning "*Critical thinking by example*" ya'ni (misol orqali tanqidiy fikrlash) kitobida ta'kidlashicha bo'lajak tarbiyachilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bir necha jarayonlarni qamrab oladi. Ulardan; fikrni baholash asoslari, tushib qolgan asosni aniqla, isbot yoki dalil keltirishdagi xatolarni aniqlash, qo'shimcha dalillar ta'sirini baholash, taxminni aniqlash, xulosani aniqlash, asosiy xulosani umumlashtirish.



1.rasm. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish aspektlari

Adabiyotlar taxliliga ko'ra yuqorida keltirilgan rasmni izohlab o'tamiz.

Fikrni baholash asoslari. Yaxshi fikr nima? Yaxshi fikr uchta talabga javob berishi kerak: Sabab xulosaga aloqador; sabab xulosa uchun yetarli;

sabab ishonchli.

Yaxshi asoslangan fikr.

[1] Hamma faylasuflar aqlli bo'lganlar.

[2] Suqrot-buyuk faylasuf

Tushib qolgan asosni aniqlash. Ba’zida fikrdagi ayrim asoslar yoki mulohazalar matnda tushib qoladi. Tanqidiy fikrlash bo’yicha berilgan topshiriqni bajarish uchun shu tushib qolgan asos yoki xulosani aniqlashimizga to’g’ri keladi.

Taxminni aniqlash. Taxmin – bu matnda berilmagan, lekin xulosaga kelish uchun matnda bor bo’lishi kerak bo’lgan ma’lumotdir. Matndagi yetishmayotgan bo’lakni taxmin qilish uchun undagi xulosani aniqlab olish kerak bo’ladi. Matn sizga nimani uqtirishga harakat qilayotganini toping. Keyin bu xulosaga kelish uchun matnda yetarli asos berilgani yoki yo’qligini aniqlang, bu xulosaga kelish uchun yana qanday qo’shimcha ma’lumot berilishi kerakligini toping.

Isbot yoki dalil keltirishdagi xatolarni aniqlash. Bu turdagi topshiriqlarda fikrdagi kamchilikni topish, ya’ni nima uchun berilgan asoslardan xulosa kelib chiqmasligini tushuntirishingiz kerak bo’ladi.

Xulosani aniqlash. Berilgan matn javob variantlari ichidagi qaysi xulosani qo’llab quvvatlashi so’ralgan topshiriqlarda javobdagi variantlarni o’rganib chiqib, asosiy matndagi fikrlar qaysi javob variant uchun asos vazifasini o’tab bera olishini tekshirish kerak bo’ladi.

RESULT AND DISCUSSIONS. Kreativlik borasida ilmiy izlanishlar olib borgan ko’plab olimlarning ta’kidlashicha: “Kelajakda amalga oshadigan ishlarimizni rejalarini tuzib, vazifalarimizni yozib borib, qadam-baqadam hayot yo’limizni bosib o’tganimizda ijob qilamiz. Bu jarayon muallifdan foydalanuvchiga, bo’lajak tarbiyachiga, tomoshabinga, tinglovchiga o’tib boradi. Ijob bu boshlanishi va yakuni bo’lmagan jarayondir. Ijodiy jarayon hech qachon tugamaydi. Uning yakuniy nuqtasi bo’lmaydi. U abadulabad davom etadigan harakatdir”.

Ushbu g’oyaga ko’ra, pedagog o’quv faoliyatni yakunlaganida ijodiy jarayon yakunlanmas ekan. Ya’ni, ushbu o’quv faoliyat to’g’risida ma’lumotga ega bo’lgan bo’lajak tarbiyachi uni mukammal egallaydi va amaliy bajaradi. Bajarilgan faoliyat natijasidan ijtimoiy muhitda foydalanilib insonlarga huzur bag’ishlaganida - ijodiy jarayon davom etadi. Har bir yaratilgan mahsuldorlik yaratuvchining san’at asri hisoblanadi. San’at asarining muxlislarga ta’sir qilishi ijodiy jarayonning davom etayotganidan dalolat beradi. Bu g’oyaga ko’ra - san’at asari yaratilishi tugamay, undan muxlislar bahramand bo’lishganida ham davom etaveradi. Bu g’oyani amerikalik shoir Uolt Uitmen(1819-1892) ham tasdiqlab, uning fikricha - ijodiy jarayonning natijasi, ya’ni san’at asari-shunchaki musiqa yoki san’at asari bo’lmay - tomoshabin, muxlis, tinglovchi bilan o’zaro ta’sir qilish jarayoni bo’lib davom etadi.

Psixologiyada “kreativlik” tushunchasi odatiylikdan voz kechib, yangilik yarata olishlik, muammoni noodatiy yo’l bilan yechish, original fikr yuritish, stereotiplardan voz kechish, noodatiy tahlil va sintezni amalga oshirish, to’g’ri qarorni yagona yechimini his qilish kabi ma’nolarni bildiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, kreativ fikrlashga moyillik har bir insonning ruhiy, ya’ni shaxsiy individualligida mavjud bo’lishi mumkin. Bunday kishilarni jamiyatda tug’ma talantli deb yuritiladi. Bunday insonlar aksariyati ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish natijasida iste’dodli va kreativ fikrlay oladigan buladilar. Ya’ni bunday insonlar bolaligidan tengqurlari orasida “o’zgacha”ligi bilan ajralib turadilar, turli yangilik va innovatsiyalar yaratadilar. Mavjud vaziyatlarga noodatiy tarzda yondashadilar, odatiy narsalarga o’zgacha nigoh bilan nazar solish va yangicha yechim topa oladigan insonlarda kreativ fikrlash xarakteri, balki, inson tabiatining o’ziga xosligi bo’lishi ham mumkin.

Mutaxassislarning fikricha kreativ kompetentlikni rivojlantirishni ikki davrga bo'lish mumkin: maktabgacha yosh davr va o'smirlik ya'ni, balog'at davrini o'z ichiga olgan 13-20 yoshdagi yigit-qizlar kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantira oladi deb hisoblashgan. Demak, biz tadqiq etayotgan bo'lajak tarbiyachilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish davri ana shu ikkinchi davrga to'g'ri keladi. Bu davrda yo'naltirilgan ijodkorlik, ya'ni kreativlik – bo'lajak tarbiyachi o'zi qiziqqan sohani o'rganish, o'zlashtirish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

L.Terstoun va D. Gilfordlar tomonidan o'tgan asrning 50-60 yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya jarayonida kreativ kompetentlikni alohida qobiliyat sifatida o'rganganlar. Chet el tajribasida kreativ kompetentlikni tadqiq qilish ikki yo'nalishda olib boriladi.

Birinchi yo'nalishda - kreativlik intellekt bilan bog'lanib, bilim olish jarayonining kreativ kompetentlikni rivojlantirishga bo'lgan ta'sirini tadqiq etadi.

Izlanishning ikkinchi yo'nalishi - bo'lajak tarbiyachi va uning o'ziga xos ruhiy individuallik xususiyatlari kreativlikga aloqadorligini qamrab oladi.

Unda shaxsning individual maqsad sari intiluvchanlik tomonlariga ahamiyat beriladi.

CONCLUSION. Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak kreativ kompetentlikning rivojlanishi shartlaridan biri sog'lom va erkin muhit yaratishdir. Bo'lajak tarbiyachilar kreativ kompetentligini rivojlantirishda ularning erkin harakat qilishlari, mustaqil fikrlarini bayon eta olishlarini ta'minlash lozim. Bo'lajak tarbiyachi faoliyatining samaradorligi uning ijodiy qobiliyatlari va kreativlik ko'nikmalariga bog'liqligi kelib chiqadi. Innovatsion yondashuv asosida olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning tanqidiy fikrlashga doir masalalar yechishlari orqali vaziyatlar, turli topshiriqlar, topshiriqlarni hal qila olishda bilim va mustaqil fikrlash faoliyati ortadi. O'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishning yangi tomonlarini izlashda ularning tafakkuri kuchayib boradi.

ACKNOWLEDGEMENTS. Ushbu maqolani tayyorlashimda menga yaqindan yordam bergan Ilmiy raxbarim pedagogika va psixologiya fanlari doktori B.S.Abdullayevaga minnatdorchilik bildiraman. Shu bilan birga mazkur maqolani tayyorlash jarayonida mendan oldingi olimlar fikrlari va tajribalariga tayandim. Barcha yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

CONDUCTING

1. Dilafruz Asqarova Ibroximovna. (2023). CAREGIVERS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION THAT CREATIVE POTENTIAL DEVELOPMENT OPTIONS. *Academia Science Repository*, 4(5), 1–13. извлечено от <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/744>
2. Asqarova Dilafruz Ibroximovna, Vosibjonova Shalola Abduvali qizi. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHIDA INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH. *IQRO*, 2(2), 750–567. Retrieved from <http://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/875>
3. Askarova Dilafruz Ibrokximovna, & Yuldasheva Dilshoda Tolkinovna. (2023). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS TO DEVELOP STUDENTS' CREATIVITY. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(2), 330–344. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7649320>

4. Askarova Dilafruz Ibromximovna. (2023). DEVELOP CREATIVITY IN STUDENTS OPPORTUNITIES FOR INNOVATION. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(2), 316–329. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7649295>
5. Asqarova , D. I., & Yuldasheva, D. T. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(15), 45–51. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1576>
6. Asqarova , D. I., & Yuldasheva , D. T. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYALARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(22), 9–14. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4658>
7. Askarova Dilafruz Ibromximovna. (2023). DEVELOP CREATIVITY IN STUDENTS OPPORTUNITIES FOR INNOVATION. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(2), 316–329. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7649295>